


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2025 №2

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
АХВОРОТНОМАСИ



ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013 года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии

с прилагаемыми правилами, просим направлять

по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе редакционно-издательского отдела ТМА.

100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА №2, 2025

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Силина Т. (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Зуева Л. (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

доц. Рахматуллин А.Р.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Трескач С. (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Дмн. Абдуллаева Р.М.

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Herald TMA №2, 2025

EDITORIAL BOARD

Editor in chief

prof. A.K. Shadmanov

Deputy Chief Editor

prof. O.R. Teshaev

Responsible secretary

prof. F.Kh. Inoyatova

EDITORIAL TEAM

academician Alyavi A.L.

prof. Bilalov E.N.

prof. Gadaev A.G.

prof. Jae Wook Choi (Korea)

academician Karimov Sh.I.

prof. Silina T. (Ukraine)

academician Kurbanov R.D.

prof. Zueva L. (Russia)

prof. Metin Onerc (Turkey)

prof. Mee Yeun (Korea)

prof. Najmutdinova D.K.

assoc. Rakhmatullin A.R.

prof. Salomova F.I.

prof. Treskatch S. (Germany)

prof. Shaykhova G.I.

EDITORIAL COUNCIL

DSc. Abdullaeva R.M.

prof. Akilov F.O. (Tashkent)

prof. Allaeva M.D. (Tashkent)

prof. Khamdamov B.Z. (Bukhara)

prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)

prof. Karimov M.Sh. (Tashkent)

prof. Mamatkulov B.M. (Tashkent)

prof. Okhunov A.A. (Tashkent)

prof. Parpieva N.N. (Tashkent)

prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)

prof. Khamraev A.A. (Tashkent)

prof. Kholmatova B.T. (Tashkent)

prof. Shagazatova B.X. (Tashkent)

*Journal edited and printed in the computer of Tashkent
Medical Academy editorial department*

Editorial board of Tashkent Medical Academy

Head of the department: M.N. Aslonov

Russian language editor: O.A. Kozlova

Uzbek language editor: M.G. Fayzieva

English language editor: A.X. Juraev

Corrector: Z.T. Alyusheva

Organizer: Tashkent Medical Academy

*Publication registered in editorial and information
department of Tashkent city*

Registered certificate 02-00128

*Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30 of
December 2013 in Medical Sciences department OF SUPREME ATTESTATION*

COMMISSION

COMPLETED MANUSCRIPTS PLEASE SEND following address:

*2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA.
Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi, 4-qavat,
444-xona.*

Contact number: 71-214 90 64

e-mail: rto-tma@mail.ru. rto@tma.uz

Format 60x84 1/8. UsL. printer. I. 9.75.

Listening means «Cambria».

Circulation 150.

Negotiable price

Printed in TMA editorial and publisher department risograph

2 Farobiy street, Tashkent, 100109.

Хурсанов Ё.Э., Махмудов С.Б., Шодмонов А.О. ОПЫТ НЕНАТЯЖНОЙ ГЕРНИОАЛЛОПЛАСТИКИ В ХИРУРГИЧЕСКОМ ЛЕЧЕНИИ УЩЕМЛЕННЫХ ВЕНТРАЛЬНЫХ ГРЫЖ	Khursanov E.E., Makhmudov S.B., Shodmanov A.O. EXPERIENCE OF TENSION-FREE HERNIOALLOPLASTY IN SURGICAL TREATMENT OF STRANGULATED VENTRAL HERNIAS	189
Юсупов А.Ф., Ходжаев Д.Х., Ходжаева А.Д. НОВАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ИЗМЕНЕНИЙ МЯГКИХ И КОСТНЫХ ТКАНЕЙ ОРБИТЫ У ПАЦИЕНТОВ С АНОФТАЛЬМОМ	Yusupov A.F., Xodjaev D.X., Xodjaeva A.D. NEW CLASSIFICATION OF CHANGES IN SOFT AND BONE TISSUES OF THE ORBIT IN PATIENTS WITH ANOPHTHALMOS	194
Ярашев А.Р., Эшонов О.Ш. ЛИМФОТРОПНАЯ ПРОТИВООТЕЧНАЯ ТЕРАПИЯ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ БОЛЬНЫХ С ИШЕМИЧЕСКОМ ИНСУЛЬТОМ	Yarashev A.R., Eshonov O.Sh. LYMPHOTROPIC DEFEDEDEDEMATIC THERAPY IN COMPLEX TREATMENT OF PATIENTS WITH ISCHEMIC STROKE	201
ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ	HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY	
Azizova F.L., Urazaliyeva I.R., Tulyaganova D.S. REABILITATSIYA HAMSHIRASINING ISH VAQTI-NI XRONOMETRAJ USULI ASOSIDA BAHOLASH	Azizova F.L., Urazaliyeva I.R., Tulyaganova D.S. TIMEKEEPING OF THE WORKING TIME OF A REHABILITATION NURSE AS A TOOL FOR ASSESSING PERFORMANCE	204
Алимова Х.П., Ибадов Р.А., Юнусов А.А., Ибрагимов С.Х. АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ И ОКАЗАНИЯ ЭКСТРЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПОЧЕК НА ФОНЕ ПНЕВМОНИИ COVID-19	Alimova H.P., Ibadov R.A., Yunusov A.A., Ibragimov S.Kh. ASPECTS OF ORGANIZING AND PROVIDING EMERGENCY MEDICAL CARE FOR PATIENTS WITH CHRONIC KIDNEY DISEASE AGAINST THE BACKDROP OF COVID-19 PNEUMONIA	208
Ne'matova N. O', Abdukaharova M.F., Xudoyqulov J.B. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OIV – INFEKTSIYASIDA EPIDEMIK JARRAYONNING OZIGANOS HUSUSIYATI	Nematova N.U., Abdukaharova M.F., Xudoyqulov J.B. FEATURES OF THE EPIDEMIC PROCESS OF HIV INFECTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	215
Рахимов Р.А., Матназарова Г.С., Ибадуллаева Н.С., Рахимов Р.Р., Расулова Д.М., Переяслов Д.И., Брянцева Е.В. ОСОБЕННОСТИ СЕЗОНА ОСТРЫХ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЙ 2023-2024 ГГ. В УЗБЕКИСТАНЕ	Rakhimov R.A., Matnazarova G.S., Ibadullaeva N.S., Rakhimov R.R., Rasulova D.M., Pereyaslov D.I., Bryanceva E.V. FEATURES OF THE SEASON OF ACUTE RESPIRATORY INFECTIONS 2023-2024 IN UZBEKISTAN	218
Тиркашев О.С., Г.С.Матназаров, Н. Саидкасимова Н.С., Брянцева Е.В. САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ХУДУДИДА ҚИЗАМИҚ БИЛАН КАСАЛЛАНИШНИНГ ЭПИДЕМИК ЖАРАЁНИНИ НАМОЁН БЎЛИШИ	Tirkashev O.S., Matnazarov G.S., Saidkasimova N.S., Bryantseva E.V. MANIFESTATION OF THE MEASLES EPIDEMIC PROCESS IN THE SAMARKAND REGION	222
ПОМОЩЬ ПРАКТИЧЕСКОМУ ВРАЧУ	HELPING A PRACTITIONER	
Бафоева З.О., Манзитова В.Ф. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРЕДОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕАБИЛИТАЦИИ	Bafoyeva Z.O., Mazitova V.F. THE USE AND POSSIBILITIES OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN REHABILITATION	227
Шокирова Ф.Ж., Насриева Ш.С., Шамансурова Б.М. КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ РАКА ЯИЧНИКОВ У ЖЕНЩИНЫ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА	Shokirova F.Zh., Nasrieva Sh.S., Shamansurova B.M. CLINICAL CASE OF OVARIAN CANCER IN AN ELDERLY WOMAN	229

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OIV – INFEKTSIYASIDA EPIDEMIK JARRAYONNING OZIGA HOS HUSUSIYATI

Ne'matova N. O., Abdukahtarova M.F., Xudoyqulov J.B.

ОСОБЕННОСТИ ЭПИДЕМИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ВИЧ-ИНФЕКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Неъматова Н.У., Абдукахарова М.Ф., Худойкулов Ж.Б.

FEATURES OF THE EPIDEMIC PROCESS OF HIV INFECTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Nematova N.U., Abdukaharova M.F., Xudoyqulov J.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Цель: изучение особенностей эпидемиологического процесса ВИЧ-инфекции в Республике Узбекистан и городе Ташкенте. **Материал и методы:** изучены и ретроспективно проанализированы официальные данные о заболеваемости ВИЧ-инфекцией Республиканского центра по борьбе с ВИЧ/СПИД Узбекистана за 2000-2023 гг., а также результаты тестов на ВИЧ в диагностических лабораториях. В исследовании использовались методы ретроспективного и операционного эпидемиологического анализа. **Результаты:** общее число лиц, у которых диагностирована ВИЧ-инфекция за 11 месяцев 2020 г. – 419 (и/к-16, 4), в том числе детей до 18 лет – 20 (и/к-2, 6). 25 человек, подозреваемых в инфицировании ВИЧ через медицинский контакт, обращались в 34 медпункта 43 раза и получали лечение 55 раз в стационарных и амбулаторных условиях. **Выводы:** повышение уровня знаний населения и медицинских работников о ВИЧ-инфекции имеет важное значение для раннего выявления этого заболевания и предотвращения эпидемического распространения заболевания.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, заболеваемость, инфицированность, распространенность.

Objective: To study the features of the epidemiological process of HIV infection in the Republic of Uzbekistan and the city of Tashkent. **Material and methods:** Official data on the incidence of HIV infection of the Republican Center for HIV/AIDS Control of Uzbekistan for 2000-2023, as well as the results of HIV tests in diagnostic laboratories were studied and retrospectively analyzed. The study used methods of retrospective and operational epidemiological analysis. **Results:** The total number of people diagnosed with HIV infection over 11 months of 2020 was 419 (16.4 cases), including 20 children under 18 (2.6 cases). 25 people suspected of being infected with HIV through medical contact visited 34 medical centers 43 times and received treatment 55 times in inpatient and outpatient settings. **Conclusions:** Increasing the level of knowledge of the population and health workers about HIV infection is important for the early detection of this disease and the prevention of the epidemic spread of the disease.

Key words: HIV infection, morbidity, infection rate, prevalence.

Hozirgi zamon tibbiyoti va sog'liqni saqlash tizimini eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan OIV-infektsiyasi dunyoning barcha davlatlarida keng tarqalganligi bilan ajralib turadi [3,2,8].

OIV epidemiyasi butun sayyoramiz bo'ylab tarqalib, ulkan pandemiyaga aylandi va bugungi kunda dunyoning ba'zi mamlakatlarida juda katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Sog'liqni saqlash sohasida va boshqa sohalarda epidemik vaziyatni beqarorlashtiradi va aholining rivojlanish maqsadlariga erishishga to'sqinlik qilmoqda. Bu eng murakkab tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib, millionlab odamlarning kasalligi va o'limi bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni o'z ichiga olgan holda, jahon miqyosidagi xususiyatga ega bo'lib, dunyo taraqqiyotiga haqiqiy tahdid tug'dirdi [10].

OIV epidemiyasi deyarli butun dunyoni qamrab olganiga qaramay, uning turli mintaqalarda rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar va farqlarga ega bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash, o'rganish va bilish to'g'ri yondashuvni tanlashda juda muhim rol o'ynashi mumkin [6].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra Sayyoramizda 2023 yil oxiriga kelib, OIV infektsiyasini yuqitirib olganlar va kasallangan bemorlar soni 39,9 million, yangi zararlanganlar 1,3 (1–1,7) millionni tashkil etgan. Ushbu ma'lumotlar 2014 yilga nisbatan 4,2

(3,0-5,7) mln. ko'rsatkichga kamayganligi aniqlandi. OIV infektsiyasiga yondosh kasalligi qo'shimcha bo'lib yuklanishi tufayli vafot etganlar soni 630 000 (500 000-820 000) – insonlarni tashkil etadi.

Ularning uchdan ikki qismidan ko'prog'i (25,4 million) Afrika mintaqasida yashaydi [1,4, 8].

2023-yil 30-iyun holatiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi fuqarolari orasida 1664149 kishi OIV infektsiyasining inson immunitet tanqisligi virusi tasdiqlangan tashxisi bilan ro'yxatga olingan (OIV infektsiyasi bilan kasallanganlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra), shu jumladan: kasallik bilan vafot etganlar so'ni 475150 (28,6%) ko'rsatkichga teng [9].

O'zbekistonda OIV infektsiyasining birinchi holati 1987 yilda qayd etilgan bo'lib, OIV infektsiyasining ilk bor aniqlangan paytidan boshlab 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 71 000 nafar shaxslar aniqlandi

2023 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida jami 48 658 nafar OIV-infektsiyasi bilan ro'yxatga olingan shaxslar yashab kelmoqda, shulardan (54,5%) erkaklar, (45,6%) ayollar tashkil etgan [1,7].

Tadqiqot maqsadi

O'zbekiston Respublikasi va Toshkent shahrida OIV infektsiyasi epidemiologik jarayonning xususiyatlarini o'rganish.

Material va usullar

OIV-infektsiyasi epidemiologik jarayonning epidemiologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi OIV/OITS kasalligiga qarshi kurashish markazi OIV-infektsiyasi bilan kasallanish bo'yicha 2000-2023 yillardagi rasmiy ma'lumotlari o'rganildi va retrospektiv tahlil qilindi. Shuningdek, diagnostika laboratoriyalaridagi OIV test-sinamallari natijalari. Ishda retrospektiv va operativ epidemiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Kasallikning ko'p yillik dinamikasida (2000-2023 yillar davomida) 3722 ta holatga oshganligi qayd etildi. Shundan 2000 yilda 154 holat, 2009 yilda 4016 holatga ko'tarilib, 2011 yilga kelib, kasallikning 3584 holat qayd etilgan, 2009 yilga nisbatan bir oz pasayganligi kuzatilgan, 2021 yilda 2817 holat ro'yxatga olingan, epidemiologik vaziyat ancha barqarorlashganini ko'ramiz, ya'ni 767 holatga pasaygan. 2023 yilga kelib kasallik ko'rsatkichi birmuncha pasayganligini, 2949 kasallanish holati aniqlangan.

OIV infektsiyasi bilan kasallanishning jins bo'yicha tarkibida an'anaviy ravishda erkaklar ulushi ustunlik qiladi. OIV infektsiyasi bilan kasallangan ayollar ulushining o'sishi mintaqaviy epidemiologik xususiyatlarni tushuntirib beradigan, epidemik jarayonning etakchi omillarini ko'rsatadigan va ayrim hududlar va aholi o'rtasida epidemiyaning rivojlanish mexanizmini bashorat qila oladigan muhim ko'rsatkich (shu jumladan prognostik ahamiyatga ega) hisoblanadi. 2022-2023 yillarda OIV infektsiyasi bilan kasallangan shaxslarni jinsi bo'yicha tahlil qilganda, 2022 yilda 290 nafar (62 %) erkaklar, 178 nafar (38 %) kishini ayollar tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Ro'yxatga olingan OIV bilan kasallanganlarning umumiy soniga nisbatan erkaklar o'rtasida OIV infektsiyasi bilan kasallanish holatlari ko'payganligi qayd etilgan.

OIV infektsiyasining profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun yuqish yo'llarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Butun dunyoda ham, mamlakatimizda ham so'nggi yillarda OIV infektsiyasining jinsiy yo'l bilan yuqishi ortib bormoqda.

2022-2023 yillarda OIV bilan kasallangan infektsiyaning yuqish yo'llarini tahlil qilinganida (77, 5 % -77, 0%) jinsiy yo'l, (11, 7-10, 6 %) parenteral, (0, 6-0, 2 %) vertikal yo'l bilan yuqishi aniqlangan.

OIVning yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan guruhlar orasida tarqalganlik dinamikasi 2005-2021 yillar kesimida qaraydigan bo'lsak kasallik dinamikasi keskin pasayganini ko'ramiz. Giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilarda 2005 yilda 19,7%, 2021 yilda 2,9%, rag'batlantitish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchilarda 2005 yilda 4,7%, 2021 yilda 1,27%, erkaklar bilan erkaklar jinsiy aloqa qiluvchilarda 2005 yilda 10,8%, 2021 yilda 4,5% tashkil etgan. Ushbu yillarda kasallik dinamikasi giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilarda 16,8% ga, rag'batlantitish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchilarda 3,43%, erkaklar bilan erkaklar jinsiy aloqa qiluvchilarda 6,3% holatga pasayganini ko'ramiz.

Tibbiy yordam ko'rsatishda tibbiyot xodimlarining kasbga doyr infektsiyasi xavfi ortib bormoqda. Tibbiyot xodimining infektsiyasi diagnostika va davolash muola-

jalarini bajarish jarayonida, shuningdek, jarohatlar (kesish, in'ektsiya, suyak bo'laklari bilan terining shikastlanishi va boshqalar) va turli ifloslanish holatlarida sog'liqni saqlash muassasalaridan chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish paytida sodir bo'lishi mumkin. Bemorning OIV viruslarini o'z ichiga olgan biologik suyuqliklari bilan teri va shilliq qavatning shikastlanishlari.

O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrida 2020-2021 yillarda OIV aniqlanib, yuqish yo'li parenteral tibbiy muolaja orqali deb, gumon qilingan holatlar: 2020-yilda 11 oyda OIV infektsiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami - 419 nafar (i/k-16, 4); - Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami - 20 nafar (i/k-2, 6); OIV infektsiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 25 nafar shaxslar 34ta DPMLarga 43 marotaba murojaat qilib, 55 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

2021-yil 11 oyda OIV infektsiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami - 472 nafar (i/k-17,8); - Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami - 20 nafar (i/k-2, 6); OIV infektsiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 28 nafar shaxslar 28 ta DPMLarga 50 marotaba murojat qilib, 53 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

Xulosalar

1. OIV infektsiyasi bilan kasallanish holatlari respublikaning ma'muriy hududlari bo'yicha notekis taqsimlangani qayd etildi.

Kasallikning ko'p yillik dinamikasida (2000-2023 yillar davomida) 3722 ta holatga oshganligi qayd etildi. 2023 yilga kelib kasallik ko'rsatkichi birmuncha pasayganligini, 2949 kasallanish holati aniqlangan.

2.OIVning yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan guruhlar orasida tarqalganlik dinamikasi 2005-2021 yillar kesimida qaraydigan bo'lsak kasallik dinamikasi keskin pasayganini ko'ramiz. Ushbu yillarda kasallik dinamikasi giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilarda 16,8% ga, rag'batlantitish evaziga intim xizmat ko'rsatuvchilarda 3,43%, erkaklar bilan erkaklar jinsiy aloqa qiluvchilarda 6,3% holatga pasayganini ko'ramiz.

3.O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrida 2020-2021 yillarda OIV aniqlanib, yuqish yo'li parenteral tibbiy muolaja orqali deb, gumon qilingan holatlar: 2020-yilda 11 oyda OIV infektsiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami - 419 nafar (i/k-16, 4); - Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami - 20 nafar (i/k-2, 6); OIV infektsiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 25 nafar shaxslar 34ta DPMLarga 43 marotaba murojaat qilib, 55 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

4.2021-yil 11 oyda OIV infektsiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami - 472 nafar (i/k-17,8); - Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami - 20 nafar (i/k-2, 6); OIV infektsiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 28 nafar shaxslar 28 ta DPMLarga 50 marotaba murojaat qilib, 53 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

5. Aholining va tibbiyot xodimlarining OIV-infektsiyasi bo'yicha bilimlari saviyasini oshirish ushbu kasallikni erta aniqlashda va kasallikning epidemik tarqalishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega, bu esa,

o'z navbatida, tibbiyot xodimlarining OIV-infektsiyasiga nisbatan xushyorligini yanada oshirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Информационное письмо Республиканского центра по борьбе со СПИДом, 2023 г.
2. Крюкова В.А., Ганина Л.Ю., Турумова З.Ж., Сатарбеков И.К., Кадыров З.З., Махаматов А.А. //Основные эпидемиологического надзора за ВИЧ-инфекции// Учебное пособие. – Ташкент.- 2011. С.3.
3. Матиевская Н.В. Книга ВИЧ-инфекция Оппортунистические инфекции и заболевания. – М.: Бином, <https://www.labirint.ru/books/541717/> / 2016
4. Матназарова Г.С., Неъматова Н.У. //Эпидемиологическая ситуация по ВИЧ-инфекции в Республике Узбекистан// – Материалы //XXXIX Международной научно-практической интернет-конференции//. Переяслав-Хмельницкий – 2018.- С.516-519.
5. Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф., Кутлымуратова Г.Д. Эпидемиологические особенности ВИЧ-инфекции в Республике Узбекистан. Журнал //Теоритическое и клинической медицины//. Тошкент. -2020. С. 130-131.
6. Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф. // Эпидемиология и профилактика инфекции вирусом иммунодефицита человека // Учебно-методическое пособие для студентов медицинских вузов – Ташкент.- 2021. С.18-20.
7. Неъматова Н.У., Абдукахарова М.Ф., Хамзаева Н.Т. // Механизм развития эпидемического процесса при внутрибольничной ВИЧ-Инфекции в городе Ташкент// *Open Herald: Periodical of Methodical Research* Volume 2, Issue 1, January, 2024ISSN(E):2810-6385. Website: <https://academiaone.org/index.php/6>. P 19-23
8. Развитие эпидемии СПИД. ЮНЭЙДС, ВОЗ, 2023 г.
- 9.Справка ВИЧ-инфекция в Российской Федерации <https://www.google.com/search2023> г.

10. Nigora U., Ne'matova M.F., Abdukaharova U.A. Almatova //Epidemiological situation on HIV-infection in the Republic of Uzbekistan//. Skopus. Turkish journal of Physiotherapy and Rehallitation; 2022/ 32(2) ISSN 2651 | e-ISSN 2651-446X (pdf/322/32-2-539. pdf). Pages: 4121-4126. www.turkijphysiotherrehabil.org.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OIV – INFEKTSIYASIDA EPIDEMIK JARRAYONNING OZIGA HOS HUSUSIYATI

Ne'matova N. O', Abdukaharova M.F., Xudoyqulov J.B.

Maqsad: O'zbekiston Respublikasi va Toshkent shahrida OIV infektsiyasining epidemiologik jarayonining xususiyatlarini o'rganish. **Material va usullar:** O'zbekiston OIV/OITSGa qarshi kurash Respublika markazining 2000-2023 yillarga mo'ljallangan OIV infektsiyasi bilan kasallanish darajasi to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar, shuningdek diagnostika laboratoriyalarida OIV testlari natijalari o'rganildi va retrospektiv tahlil qilindi. Tadqiqotda retrospektiv va operativ epidemiologik tahlil usullaridan foydalanilgan. **Natijalar:** 2020-yilning 11 oyi davomida OIV infektsiyasi aniqlanganlarning umumiy soni 419 nafarni (16,4 holat), shu jumladan, 20 nafari 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni (2,6 nafar) tashkil etadi. Tibbiy aloqa orqali OIV infektsiyasini yuqtirganlikda gumon qilingan 25 nafar shaxs 34 ta tibbiyot punktiga 43 marta tashrif buyurib, 55 marta statsionar va ambulator sharoitda davolangan. **Xulosa:** OIV infektsiyasi haqida aholi va tibbiyot xodimlarining bilim darajasini oshirish ushbu kasallikni erta aniqlash va kasallikning epidemik tarqalishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: OIV infektsiyasi, kasallanish, infektsiya darajasi, tarqalish.